Davlat o'zining ijtimoiy funksiyalarini bajarishda doimiy ravishda davlat budjeti mablag'laridan faol foydalanadi. Bu esa, davlat budjetiga bo'lgan zaruratni saqlanib qolishiga xizmat qiladi. Davlat o'zining ijtimoiy siyosatini amalga oshirishda aholining kam daromadli qatlamini moliyaviy ihatdan himoya qilishga e'tibor qaratadi. Natijada, aholining kam daromadli qatlamida mavjud bo'lgan turli ehtiyojlarni ta'minlashda ijtimoiy siyosatning elementlari vujudga kela boshlaydi.

Jahonning etakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari ilmiy tadqiqot yo'nalishlarida barqaror daromadga ega bo'lgan aholi qatlamiga ijtimoiy infratuzilma omili orqali uy-joylarni taklif qilish, budget mablag'lari hisobidan ipoteka kreditini taqdim etishda oila a'zolarining soni, aholini uy-joy bilan ta'minlashda monetar omillarni tahlil qilish, mol-mulk solig'i bo'yicha siyosatni aholi daromadlariga ta'sirini muvofiqlashtirish, davlat budjetidan subsidiyalar ajratishda aholini jinslar kesimida tizimlashtirish, aholini uy-joy bilan ta'minlash mexanizmidan davlat



maqsadli jamg'armasini tashkil etish va Eskrou hisobraqam tizimini joriy etish kabi yo'nalishlar ustuvorlik kasb etmoqda. Shuningdek, demografik jihatdan o'sish tendensiyalarining kengayib borishi uy-joyga egalik qilishga nisbatan yalpi talabning hajmini oshishiga olib kelishi, aholini uy-joy bilan ta'minlashda turar joylarning sifati, ularning sig'imkorligi, iqlim o'zgarishlariga salbiy a'sirini oldini olish, ijara uchun ham to'lovlarni joriy etish kabi tendensiyalar ham muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

O'zbekistonda aholini uy-joy bilan ta'minlashda davlat budjetining roli oshib bormoqda. Aholini uy-joy bilan ta'minlashda davlat budjetining roli ijtimoiy siyosat va ipoteka siyosati jihatidan tizimlashtirish, aholini uy-joy bilan ta'minlashda turar joylarning sifati, ularning sig'imkorligi, iqlim o'zgarishlariga salbiy a'sirini oldini olish, ijara uchun ham to'lovlarni joriy etish, shuningdek ijara to'lovlari amalga oshiruvchilarning coliq imtiyozlaridan moliyaviy manfaatdorligini oshirish va ipoteka foiz stavkalarini pasaytirishda davlat mablag'laridan foydalanish va ushbu faoliyatga doir jamg'armaga aholining bo'sh turgan mablag'larini jalb qilish amaliyotini rivojlantirish kabilar muhim hisoblanadi. Bu esa, budjet xarajatlaridan birinchi navbatda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamini uy-joy bilan ta'minlash orqali aholi turmush farovonligini oshirish uchun davlat xarajatlarida ustuvorlikni belgilashni ishlab chiqishni tadqiq etishning dolzarbligini ko'rsatib beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Aholini uy-joy bilan ta'minlashda davlat budjeti mablag'laridan foydalanish ko'plab olim va tadqiqotchilarning ilmiy xulosalarida o'z aksini topgan. Jumladan, A.Yadgarov va I.Musakov tomonidan aholini arzon uy-joy bilan ta'minlash masalalariga e'tibor qaratib, o'zlarining ilmiy xulosalarini shakllantirib berishadi[1]. Jumladan, ular quyidagicha fikrlarni asoslashga harakat qilishadi:

birinchidan, respublikamizning hududlaridagi aholini arzon uy-joy bilan ta'minlash borasida viloyat va tumanlarda amalga oshirilayotgan ishlarning monitoringini takomillashtirish.

ikkinchidan, aholini arzon uy-joy bilan ta'minlash borasida hokimiyatlar huzurida tashkil etilgan komissiyalarning doimiy ishlashini ta'minlash hamda talab qilinadigan xujjalarning sonini qisqartirish.

uchinchidan, aholini arzon uy-joy bilan ta'minlash borasida xorijiy tajribalarni o'rganish hamda kredit muddatini uzaytirish masalasiga ahamiyat qaratish.

to'rtinchidan, aholini arzon uy-joy bilan ta'minlash borasida hududiy hokimiyatlarda alohida bo'lim tashkil etish va aholining uy-joyga bo'lgan talablari bazasini shakllantirish.

Prof. J.Karimqulov va B.Nurmuxamedov tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda aholini uy-joy bilan ta'minlashda vujudga kelayotgan muammoli vaziyatlarning tahlili yuzasidan ilmiy xulosalar shakllantirib beriladi[2]. Ular tomonidan davlat budjeti mablag'lari hisobidan arzon uy-joylarni moliyalashtirishga qaratilgan moliya siyosati tahlil etiladi. Jumladan, budjet mablag'lari hisobidan xabarnomalar taqdim etilishi asosida uy-joylar uchun to'lovlarni amalga oshirishda uy sotib olmoqchi bo'lgan fuqaroning to'lov qobiliyatiga mos kelmasligi yoki arzon uylarni topishdagi murakkabliklarni keltirib o'tadi.

Dos. U.Djumaniyazov uy-joy qurilishi sohasida korporativ boshqaruv elementlarini joriy etish va unda davlat-xususiy sheriklik amaliyotining rivojlanishiga e'tibor qaratadi[3]. Uning fikricha, namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan uy-joylarga sarflanayotgan investisiyalar miqdorining bir foizga oshishi qurib foydalanishga topshirilayotgan uy-joylar sonining 0.35 foizga oshishini ta'minlamoqda, degan fikr qayd etib o'tiladi. Shuningdek, mamlakatimiz aholisini arzon va sifatli, zamonaviy infratuzilmaga ega uy-joylar bilan ta'minlash muammosi asosiy kun tartibidagi keskin ijtimoiy masalalardan biri hisoblanadi, hamda jahon tajribasiga ko'ra, mazkur muammoni echishda davlatning iqtisodiyotga aralashuvi o'ta muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlab o'tadi.

Yu.Qiyomov o'zining tadqiqotida uy-joy fondini boshqarishga nisbatan yondashuvlar ishlab chiqiladi[4]. Uning fikricha, O'zbekiston Respublikasi (sobiq) moliya vazirligi bilan kelishilgan tarzda uy-joy fonidagi kommunal xizmat ko'rsatish tizimi xizmatlari kalkulyasini takomillashtirish muhim ekanligi qayd etib o'taladi. Shuningdek, mazkur boshqaruv jarayonlariga raqamli texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan tadbirlarni yanada jadallashtirish maqsadga muvofiq ekanligi ta'kidlab o'tiladi.

N.Asadullina va boshqalar tomonidan mamlakatimizda uy-joy qurilish tendensiyalarining rivojlanish holatlarini tahlil etib o'tadi[5]. Ularning fikricha, uy-joyga bo'lgan ehtiyoji yuqori bo'lgan aholi qatlamining asosiy qismi daromadlarining sezilarli ulushini ijara to'lovlari yo'naltirilayotganligini ta'kidlab o'tadi. Bu esa, qo'shimcha tarzda ehtiyojlarni ta'minlashga bo'lgan moliyaviy murakkabliklarni keltirib chiqarishini ko'rsatib o'tishadi. Natijada, oilaning qashoqlashuvi oshishi, tibbiy xizmatlardan foydalana olish imkoniyati kamayishi kabi tendensiyalarni keltirib chiqarishini qayd etib o'tishadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, ekspert baholash, ilmiy abstraksiyalash va boshqa usullardan keng foydalanildi.




TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlarga e'tibor qaratsak, aholini uy-joy bilan ta'minlash borasida qator tub o'zgarishlar amalga oshirilganligini kuzatish mumkin. Jumladan, aholining kam ta'minlangan qatlamiga shaxsiy turar-joy sotib olishida davlat budjeti mablag'lari hisobidan subsidiyalar ajratilishi yo'lga qo'yilganligi bu boradagi ishlarning amaliy ifodasi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Aholining turar-joy sotib olishida quyilagi jihatlarga ustuvorlik berilayotganligi e'tiborga molik, deb o'ylaymiz:

Birinchidan, aholining kam daromadli qatlami uchun turar-joy qiymatining dastlabki to'lov uchun davlat budjetidan mablaglar hisobidan subsidiyalar berish.

Ikkinchidan, davlat budjeti mablag'lari hisobidan tijorat banklarida kredit liniyalarini ochish orqali aholining o'rta qatlami uchun ipoteka kreditlarini ajratish nazarda tutilganligi bilan alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

Bizningcha, davlat budjetidan ajratiladigan mablag'lar hisobidan aholini uy-joy bilan ta'minlash ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu boisdan, davlat budjeti mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar ham muhim ahamiyat kasb etadi (1-rasm).



1-rasm. Davlat budjeti ijtimoiy soha va aholini uy-joy bilan ta'minlash xarajatlari 2016-2024 yillar choraklik tendensiyasi, mlrd. so'm,

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, aholini uy-joy bilan ta'minlashning davlat budjeti xarajatlari ijtimoiy soha xarajatlari tendensiyasi bilan bir xil trendni ifoda etmoqda. Qayd etish lozimki, davlat o'zning budjet xarajatlari hisobidan ijtimoiy siyosatni moliyalashtirishni reja qilganda aholini uy-joy bilan ta'minlashni uyg'unlikdagi rakursda saqlayotganligini e'tirof etish lozim. Bu esa, aholini uy-joy bilan ta'minlash davlat budjeti xarajatlari ustuvorlik kasb etishini o'zida aks ettirib beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-apreldagi "2024-yilda ipoteka kreditlarini ajratish mexanizmlarini takomillashtirish va aholining uy-joy sharoitlarini yaxshilashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-70-sonli farmonining qabul qilinishi ham sohada amalga oshirilayotgan islohotlarni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qildi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Mazkur hujjatda aholini uy-joy bilan ta'minlashda davlat budjeti mablag'laridan foydalanishning ustuvor jihatlari belgilab berilganligini qayd etish lozim. Jumladan, ular sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

qurilish tashkilotlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida ularga bozor tamoyillari asosida ajratilgan kreditlar bo'yicha kompensasiya va kafilliklar taqdim etish.

ko'p qavatli uy-joylar qurish jarayonlariga «yashil» uy-joy standartlarini keng joriy qilish.

ipoteka kreditlarini moliyalashtirishga O'zbekiston Respublikasi respublika budjeti, «O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi» AJ hamda banklarning o'z mablag'lari hisobidan kamida 17 trillion so'm mablag' yo'naltirish.



Kambag'allikdan chiqarish dasturiga kiritilgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj bo'lgan shaxslarga yakka tartibdagi uy-joy qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash uchun 120 million so'mgacha ipoteka kreditlarini ajratish.

Ma'lumki, mamlakatimiz aholisi so'nggi yillarda ko'payish tendensiyasini ifodalab bermoqda. Jumladan, 2024-yilda 2019-yilga nisbatan aholi soni 3 million 500 ming nafarga ko'paygan va 36 million 800 ming nafarni tashkil etgan. Bu esa, aholining uy-joy fondiga bo'lgan ehtiyojini oshib borish holatini o'zida aks ettirib beradi. Shu bilan birga, yangi tashkil etilayotgan oilalar sonining ham oshib borishi kuzatilayotganligini qayd etish lozim. Xususan, o'rganilayotgan davrda ushbu raqam so'nggi besh yilda o'rtacha 145 ming 423 tadan nikohni tashkil etgna.

Fikrimizcha, aholiga munosib turmush sharoitini yaratish, ular uchun yangi uy-joylar barpo qilish – eng ustuvor vazifalardan biri bo'lib oladi. Shu boisdan, aholini uy-joy bilan ta'minlashda davlatning roli muhim ekanligi mamlakatimiz Qomusida ham alohida qayd etilganligi ta'kidlash lozim.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi 47-moddasida "Davlat uy-joy qurilishini rag'batlantiradi va uy-joyga bo'lgan huquqning amalga oshirilishi uchun shart-sharoitlar yaratadi. Aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarini uy-joy bilan ta'minlash tartibi qonun bilan belgilanadi" deb belgilab qo'yilgan. Bu esa, davlat budjeti mablag'laridan foydalanish samaradorligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy xulosalarni shakllantirish muhim hisoblanadi.

Davlat o'zining ijtimoiy siyosatini amalga oshirish davomida xususiy sektor vakillarini ham jalb qilishni nazarda tutadi. Bu esa, davlatning moliyaviy mexanizmlarni amalga oshirish orqali bilvosita ijtimoiy siyosatni amalga oshirishiga xizmat qiladi, deb o'ylaymiz. Shu boisdan, ushbu tizimni rag'batlantirish orqali davlat o'zining zimmasiga tushadigan moliyaviy yukni kamaytirishga erishishi mumkin bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-noyabrdagi "Ipoteka krediti mexanizmlarini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5886-son¹ Farmoni qabul qilindi. Mazkur hujjatga ko'ra, arzon uy-joylar qurish dasturlari tugatilib, bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta'minlashning yangi tartibi joriy etilgan.

Biningcha, davlat tomonidan ipoteka kreditini rivojlantirish orqali aholining kam daromadli qismini uy-joy sotib olishida moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun zaimn hozirlanadi. Bu esa, ijtimoiy siyosatning muhim ustuvorligini o'zida ifodal beradi, deb o'ylaymiz.

Tahlillarimiz ko'rsatishicha, mamlakatimizda yangidan qurilayotgan ko'p qavatli uylarning soni o'sish tendensiyasiga ega bo'lsada, aholining umumiy talablaridan ortda qolayotganligini kuzatish mumkin. Jumladan, 2023 yilda yangi qurilishi rejalashtirilgan 90 mingta kvartiralaridan 84 ming 417 tasining qurilishi yakunlangan bo'lsada, aholining talabi ushbu raqamdan 42 foiga ko'p ekanligini ko'rish mumkin.

Shunday bo'lishi qaramasdan, ko'p qavatli kvartiralarni qurishdagi ayrim muammoli jihatlarning saqlanib qolayotganligini ko'rish mumkin. Jumladan, tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan qurilayotgan uy-joylarning qurilish tannarxini pasaytirish va uylar sifatini yaxshilash bo'yicha ishlar tizimli yo'lga qo'yilmagan. Shuningdek, 2023-2024 yillarda ko'p qavatli uy-joylar qurilishi uchun asosiy xom-ashyolar hisoblangan sement, metall narxlari oshmasligiga qaramay yangi uy-joylar sotuv narxi o'rtacha 48 foiz, 2020 yilga nisbatan esa 2,6 barobarga, 2021 yilga nisbatan 2 barobar oshgan.

Masalan, eng katta o'sish Xorazm viloyatida 76 foiz, Farg'onada 73 foiz va Sirdaryoga 69 foiz to'g'ri keladi. Navoiyda 1 kvadrat metr uy-joy narxi 6,5 million so'm bo'lib, boshqa viloyatlarga nisbatan 18 foiz qimmat ekanliginko'rishm mumkin.

Bizningcha, aholiga yangidan qurilib sotilayotgan uy-joylarning qimmatlashib borishiga quyidagi omillar ta'sir etadi, deb o'ylaymiz:

tadbirkorlar tomonidan maksimal foyda olish nisbatan moyillikning saqlanib qolishi.

yer maydonlarining cheklanganligi bois ularning bozor qiymati doimiy oshib borish xususiyatini ifodalashi.

tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan uy-joy qurilishi uchun aylanma mablag'larni to'ldirish uchun kredit foiz stavkasining balandligi (26-28 foiz) saqlanib qolayotganligi.

uy-joylar qurilishi va foydalanishga topshirish uchun qo'yilgan ko'plab talablarning to'liq reglament asosida qayta ko'rib chiqishga bo'lgan zaruratning mavjudligi.

shuningdek, barcha turdagi uy-joylarning tannarxini va uning sifatini moliyaviy va texnik nuqtai nazardan tartibga soladigan davlat vakolatlarining tarqoqligi. Jumladan, yangi uy-joylarning qurilishi O'zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi tomonidan monitoring qilinsa, uy-joy sotib olish uchun taqdim etiladigan subsidiya va ipoteka kreditlari Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan monitoringi amalga oshiriladi. Bu esa, aholini uy-joy bilan ta'minlashda davlat mablag'laridan foydalanish samaradorligini ta'minlasha bo'lgan zaruratning kun tartibida saqlashga olib kelmoqda (1-jadval).

1 <https://lex.uz/docs/-4637331>



1-jadval. 2024 yilda aholiga ipoteka krediti bo'yicha subsidiya (boshlang'ich badal va foiz xarajatlarining bir qismini qoplab berilishi) to'g'risida ma'lumot

Hudud nomi	Belgilangan reja				Boshlang'ich badal uchun to'langan erkak	Foiz to'lovi ayol	Shundan			
	soni	summa	soni	summa			summa	soni	summa	soni
	Respublika bo'yicha	20 000	2 216,2	7 237	222,1	517,7	4546	139,6	2 691	82,5
Qor. Resp.	840	64,6	650,0	19,8	10,8	290,0	8,9	360,0	10,9	
Andijon	1 640	180,7	599,0	18,3	52,2	375,0	11,4	224,0	6,8	
Buxoro	1 000	137,2	337,0	10,3	33,7	218,0	6,7	119,0	3,6	
Jizzax	900	99,1	420,0	12,9	23,6	307,0	9,4	113,0	3,5	
Qashqadaryo	1 300	125,8	552,0	17,0	30,8	352,0	10,8	200,0	6,2	
Navoiy	800	95,8	357,0	11,0	25,9	246,0	7,6	111,0	3,4	
Namangan	1 440	177,6	678,0	20,7	50,5	412,0	12,6	266,0	8,1	
Samarqand	2 260	293,7	867,0	26,9	74,7	610,0	18,9	257,0	8,0	
Surxondaryo	1 600	192,7	682,0	21,0	52,1	457,0	14,0	225,0	6,9	
Sirdaryo	500	44,9	343,0	10,6	9,7	168,0	5,2	175,0	5,4	
Toshkent	1 700	108,8	127,0	3,9	26,3	94,0	2,9	33,0	1,0	
Farg'ona	1 720	195,3	592,0	18,0	52,7	429,0	13,1	163,0	4,9	
Xorazim	1 100	117,1	706,0	21,6	23,8	441,0	13,6	265,0	8,1	
Toshkent sh.	3 200	382,9	327,0	10,1	50,9	147,0	4,5	180,0	5,6	

Bizningcha, aholini uy-joy bilan ta'minlashda e'tibor berilishi lozim bo'lgan quyidagi jihatlarni qayd etish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

uy-joy bozoridagi yalpi talab va taklifni inobatga olgan holda umumiy muvozanatni tartibga solishni joriy etish.

uy-joylar uchun qurilish ishlarini amalga oshirishda aholining bo'sh pul mablag'larini jalb etish orqali aylanma mablag'lar uchun kredit ajratish foiz stavkasini yuqorilab ketishini oldini olishni ko'zda tutish.

uy-joylar qurilishi va uni foydalanishga topshirilishida qo'yiladigan talablarni qaytadan ko'rib chiqish orqali zamonaviy talablar kontentini yaratishga erishish muhim hisoblanadi.

uy-joy bozorini tartibga solishni ifodalaydigan davlat vakolatli organining tashkil etilishi orqali muvofiqlashtirish ishlarini amalga oshirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

2024-yilda davlat budjeti mablag'lari hisobidan boshlang'ich badal va foiz xarajatlarining bir qismini qoplab berishga qaratilgan faoliyatni ko'rib chiqishga xarakat qilamiz. Tadqiq etilayotgan davrda mamlakatimiz bo'yicha subsidiyalar bo'yicha 20 mingta moliyaviy operatsiyalar amalga oshirilishi belgilanganligini qayd etish lozim. Boshlang'ich badal uchun to'langan budjet mablag'larining qiymati 222,1 mlrd. so'mni tashkil etganligini ta'kidlash lozim (1-jadvalga qarang).

Boshlang'ich badal summasini to'lashda erkaklar ko'proq ariza bilan murojaat qilayotganligini kuzatish mumkin. Bu esa, ayollarga nisbatan 1,68 barobar ko'p sondagi arizalarning ifodasini ko'rsatib beradi. Shuningdek, ushbu arizalar uchun davlat budjetidan ajratilgan mablag'larning mos ravishda 1,69 barobarga ko'p sarf etilganligini o'zida aks ettirib beradi. Umuman olganda, Toshkent sh., Samarqand va Surxondaryo



viloyatlarida belgilangan reja hajmining yuqori ekanligini kuzatish mumkin. Jumladan, Toshkent shahri uchun ajratilgan kvotlar soni 3200tani tashkil etib, ular uchun ajratilgan subsidiyalar hajmi respublika jamisida 17,2 foizga teng bo'lgan (1-jadvalga qarang).

2023-yilda aholini uy-joy bilan ta'minlashda budget mablag'laridan foydalanish tendensiyalariga e'tibor qaratish muhim deb o'ylaymiz. 2024 yilga nisbatan ko'proq kvotalar belgilanganligini qayd etish lozim. Jumladan, 2024 yilda kvotalar soni 10 mingtaga kamayganligini qayd etish lozim. Bu esa, davlat budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirish trendlari pasayish xususiyatiga ega bo'layotganligini ko'rish mumkin.

Umuman olganda, aholini davlat budjeti hisobidan uy-joy sotib olish uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun 2023-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 13-apreldagi "2023-yilda bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta'minlash dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-51-son farmoniga asosan 30000 nafar fuqarolarga subsidiya limitlari ajratilishi belgilangan (2-jadvalga qarang).

Dastur doirasida subsidiya asosida uy-joylar sotib olish uchun 329 988 ta fuqarolardan arizalar kelib tushgan.

Kelib tushgan arizalar avtomatlashtirilgan onlayn platforma orqali ijtimoiy mezonlarga muvofiq 30 000 nafar talabgorlar saralanib, ijobiy xabarnomalar taqdim etilgan.

Ijobiy xabarnomalarga ega bo'lgan 15 209 nafar talabgorlar o'zlariga mos bo'lgan uy-joylar tanlanib, ularga ipoteka kreditlarini so'ndirish bo'yicha jami 1 088,9 mlrd so'm mablag'lar subsidiya sifatida to'lab berilgan.

7 349 nafar fuqarolar o'zlariga mos bo'lgan uy-joy topa olmaganligi, 1 257 nafari tanlagan uy-joylarida qurilish ishlari kechikkanligi sababli, 1 661 nafariga uy-joylarning narxi yuqoriligi, 998 nafarida ipoteka kreditlarining oylik to'lovlarini to'lash imkoniyatiga ega bo'lmaganligi.


Bugungi kunda taqdim etilayotgan ipoteka kreditlarining yillik foiz stavkalari 18-22 foizni, eng ko'p miqdori esa Toshkent shahrida 420 mln so'm, Qoraqalpog'iston va viloyatlarda 330 mln so'm etib belgilandi.

Bozor tamoyillariga asoslangan kreditlarning foiz stavkalari jalb etilayotgan xorijiy karzlarning foiziga bog'langanligi sababli juda yuqoriligicha qolmoqda.

Ushbu kreditlar bo'yicha uy-joy sotib olinishida kvartira hajmini 70 kvadrat metrni tashkil etganda uning sotilish naxi 455 mln so'mga, Toshkent shahrida esa 962 mln so'mga teng bo'ladi.

Navoiy viloyatida uy-joy sotib oluvchi o'z jamg'armalaridan tijorat bankiga 125 mln so'm dastlabki badal to'lashi zarur bo'lsa, huddi shu uy-joy uchun Toshkent shahrida 542 mln so'm to'lashi zarur bo'ladi.

Bundan tashqari, ipoteka kreditlarini rasmiylashtirgan aholining daromadi va oylik to'lovlari hisoblab chiqilmagan (2-rasm).



2-rasm. 2023-2024 yillarda davlat budjetidan uy-joy uchun subsidiyalar taqsimoti ulushi, foizda (erkaklar bo'yicha)



Natijada Navoiy viloyatida ipoteka krediti asosida uy-joy sotib olgan fuqaro tomonidan oyiga 5 mln 100 ming so'm, Toshkent shahrida ipoteka olgan fuqaro tomonidan 6 mln 482 ming so'm tijorat banklariga to'lashi zarur.

2023-2024-yillarda davlat budjeti hisobidan aholining uy-joyga bo'lgan ehtiyojini qisman moliyalashtirishga qaratilgan islohotlarda ijobiy tendensiyalarni kuzatish mumkin. Jumladan, 2024-yildan boshlab ipoteka kreditlarining ma'lum qismi bo'lgan foiz to'lovlarini budjet hisobidan moliyalashtirish joriy etilganligi alohida e'tiborga molik.

2024-yilda aholini uy-joy bilan ta'minlashda davlat budjeti mablag'laridan foydalanishda jinslar kesimidagi o'zaro farqlanishlarni 2023-yilga nisbatan ham ko'rish mumkin. 1-rasmda keltirilgan holatda 2024-yilda 2023-yilga nisbatan Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Qashqadaryo, Samarqand, Sirdaryo va Xorazm viloyatlarida o'sish kuzatilgan bo'lsa, qolgan hududlarda kamayish yoki o'zgarish kuzatilmaganligini qayd etish lozim. Bu esa, o'sish kuzatilgan hududlarda erkaklar subsidiya olishga bo'lgan moyilligining yuqori bo'lishi saqlanib qolayotganligini ko'ri mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Aholini uy-joy bilan ta'minlashda davlat budjeti mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirishda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'lmoqda.

Birinchi, uy-joy sotib olishda aholining jinslar kesimidagi moyilligini tahlil qilish va ularni ushbu jihatdan tabaqalashtirilgan moliyaviy yondashuvni ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Ikkinchi, mamlakatimizning aholisi zich joylashgan hududlarida ko'p qavatli uy-joylarni qurish va ularni aholi tomonidan sotib olinishida davlat budjetidan subsidiyalar taqsimotini tizimlashtirish muhim hisoblanadi.

Fikrimizcha, aholini uy-joy bilan ta'minlashda davlat ijtimoiy siyosat omillari tarkibi sifatida uning elementlarini takomillashtirib borish aholining hayot farovonligini ta'minlash uchun shart-sharoit yuzaga keladi. Umuman olib qaraganda, aholining daromadlari ulushida mulkiy tarzda olinayotgan daromadlarning ulushi ortayotganligini kuzatish mumkin. Bu esa, nega ushbu tendensiya ortayotganligini o'rganishga bo'lgan zaruratni keltirib chiqaradi. Jumladan, uy-joy bozorining likvidlik darajasi va uning inestision jozibadorligi saqlanib qolayotganligi qayd etish lozim. Yana bir jihati, jamg'armalar yo'naltirilishi uchun undanda jozibali sohaning nobarqarorligi sabablarini keltirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Мусаков И.Ю. Ядгаров А.А Иқтисодий ислохотлар натижасида аҳолини арзон уй-жой билан таъминлашнинг долзарб масалалари //“Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 3, май-июнь, 2018 йил
2. Каримкулов Ж., Нурмухамедов Б. Аҳолини уй-жой билан таъминлашда юзага келаётган муаммоли ҳолатлар ва уларнинг ечими юзасидан таклифлар //Наука и технология в современном мире. – 2022. – Т. 1. – №. 7. – С. 34-40.
3. Джуманиязов У. И. Давлат-хусусий шерикчилиги асосида корпоратив бошқарувни ривожлантиришнинг айрим назарий-услубий масалалари // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 2, март-апрель, 2018 йил.
4. Қиёмов Ю. Т. и др. Уй-жой коммунал хизмат кўрсатиш соҳасидаги қулайликларнинг аҳоли эҳтиёжига бўлган талаби //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 601-606.
5. Асадуллина Н. Р., Нормуродов С. Н. Ўзбекистонда уй-жой қурилишининг ривожланиш тенденциялари //golden brain. – 2023. – Т. 1. – №. 26. – С. 11-23.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>